XALQ DEPUTATLARI KASBI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 8 - iyul VI-38-64-4-61-K/22 Kasbi tuman hokimligi

Xalq deputatlari Kasbi tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Kasbi tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kasbi tuman Kengashining sud huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish масалалари bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Xamrayev zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

Tuman hokimi **T.A.Meyliyev**

Xalq deputatlari Kasbi tuman
Kengashining
2022 yil 8 iyuldagi
VI-38-64-4-61-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Kasbi tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Xalq deputatlari Kasbi tuman Kengashining 2020-yil 30-dekabrdagi VI-16/78-sonli “Kasbi tumani mahalliy budjetining 2021-yilgi asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.